

Xarid va Tender komissiyalarning yangi tarkibini tasdiqlash to‘g‘risida

Bank Boshqaruvining 2025-yil 26-avgustdagi 106-sonli qarori bilan bankning Xarid va Tender komissiyalarining tarkibi tasdiqlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda “Davlat xaridlari tizimida raqobat muhiti va shaffoflikni ta’minlash bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-259-sonli Farmonning 15-bandiga asosan, 2026-yil 1-martdan boshlab xarid komissiyasining raisi etib faqatgina davlat buyurtmachisining rahbari, uning o‘rinbosari yoki ularning vazifasini bajaruvchi shaxs tayinlanishi lozimligi belgilangan.

Mazkur Farmon talablaridan kelib chiqib, Ma’muriy xo‘jalik departamenti tomonidan tegishli tarkibiy bo‘linmalar bilan kelishilgan holda bankning Xarid va tender komissiyalarining yangi tarkibini tasdiqlash masalasi o‘rnatilgan tartibda bank Boshqaruv muhokamasiga kiritilgan.

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB Boshqaruv to‘g‘risidagi Nizom”ning 27-bandiga asosan bank Boshqaruv bankning faoliyatiga operativ boshqaruvni amalga oshirish doirasida joriy faoliyati masalalarini tartibga soladigan ichki hujjatlarni tasdiqlashi belgilangan.

Yuqoridagilarga asosan, Boshqaruv

QAROR QILADI:

1. “Biznesni rivojlantirish banki” ATB Xarid va Tender komissiyalarining yangi tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Shu sababli, bank Boshqaruvining 2025-yil 26-avgustdagi 106-sonli qarori bilan tasdiqlangan bankning amaldagi Xarid va Tender komissiyalari tarkibi bekor qilinsin.

2. Ma’muriy xo‘jalik departamenti (F.Mustafoev)ga xaridlarni qonunchilik hujjatlari va bankning ichki qoidalariga muvofiq amalga oshirilishini ta’minlash vazifasi yuklatilsin.

3. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Boshqaruv raisi o‘rinbosari v.b. B.Bobojonov zimmasiga yuklatilsin.



<https://hujjat.brb.uz/?pin=cU19hQ45&id=b1315ddb-fa74-4aff-a6f3-677b2f6f2930>

Boshqaruv raisi v.b	IMZOLANGAN	S.Annaklichev
Boshqaruv raisining birinchi o'rinbosari v.b	IMZOLANGAN	Sh.Yusupov
Boshqaruv raisi o'rinbosari v.b.	IMZOLANGAN	O.Voxidov
Boshqaruv raisi o'rinbosari v.b	IMZOLANGAN	B.Bobojonov
Boshqaruv raisi o'rinbosari v.b.	IMZOLANGAN	B.Sharipov
Risk bosh direktori	IMZOLANGAN	D.Xakimov
Yuridik departament direktori	IMZOLANGAN	A.Nazarov
Komplaens nazorati departamenti direktori	IMZOLANGAN	J.Yusupov
Buxgalteriya hisobi va moliyaviy menejment departamenti direktori - bosh buxgalter	IMZOLANGAN	R.Taxirova

Kiritildi:

Ma'muriy xo'jalik departamenti Ma'muriy xo'jalik departamenti direktori	IMZOLANGAN	F.Mustafoyev
--	-------------------	--------------

Kelishuvchilar:

Yuridik departament Metodologiya boshqarmasi boshlig'i	KELISHILDI	S.Rakhmatullayev
Bank ijro apparati Bank ijro apparati rahbari	KELISHILDI	A.Fayzullayev

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
Boshqaruvining 2026-yil “1” apreldagi
31/3-sonli qaroriga
ILOVA

1. Xarid komissiyasi tarkibi

1	Komissiya raisi	Boshqaruv raisi o‘rinbosari v.b.	B.Bobojonov
2	Komissiya raisi o‘rinbosari	Moliyaviy resurslarni boshqarish bosh direktori	I.Xudayberganov
3	Komissiya a‘zosi	Strategiya bosh direktori	B.Raxmatov
4	Komissiya a‘zosi	Yuridik departament direktori	A.Nazarov
5	Komissiya a‘zosi	Axborot texnologiyalari departamenti direktori o‘rinbosari	K.Raxmatov
	Komissiya kotibi	Ma‘muriy xo‘jalik departamenti tarkibidagi Korporativ xaridlar boshqarmasi xodimi	ovoz berish huquqisiz

2. Tender komissiyasi tarkibi

1	Komissiya raisi	Boshqaruv raisi o‘rinbosari v.b.	B.Bobojonov
2	Komissiya raisi o‘rinbosari	Moliyaviy resurslarni boshqarish bosh direktori	I.Xudayberganov
3	Komissiya a‘zosi	Strategiya bosh direktori	B.Raxmatov
4	Komissiya a‘zosi	Yuridik departament direktori	A.Nazarov
5	Komissiya a‘zosi	Tranzaksion banking departamenti direktori	Sh.Raximov
6	Komissiya a‘zosi	Axborot texnologiyalari departamenti direktori o‘rinbosari	K.Raxmatov
7	Komissiya a‘zosi	Axborot xavfsizligi markazi - Boshqarma boshlig‘i	F.Turgunboev
	Komissiya kotibi	Ma‘muriy xo‘jalik departamenti tarkibidagi Korporativ xaridlar boshqarmasi xodimi	ovoz berish huquqisiz

Izoh: Komissiya a‘zosi boshqa ishga o‘tgan yoki (xizmat safari, mehnat va o‘quv ta‘tili, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik sababli) ishda bo‘lmagan taqdirda, uning o‘rniga yangi tayinlangan yoki xizmat vazifasi (shuningdek, tarkibiy tuzilma nizomi va lavozim majburiyatnomasiga asosida) vaqtincha yuklatilgan xodim ovoz berish huquqi bilan komissiya a‘zosi hisoblanadi.